

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OCHIQ MA'LUMOTLAR SOHASINI YANADA RIVOJLANTIRISH
CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son **Farmoni** ijrosini ta'minlash hamda ochiq ma'lumotlarning oshkoralik va sifati darajasini, ularni fuqarolarga va jahon hamjamiyatiga yetkazish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasiga qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

2021 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida ochiq ma'lumotlar sohasini rivojlantirish konsepsiysi **1-ilovaga** muvofiq;

2021 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida ochiq ma'lumotlar sohasini rivojlantirish konsepsiyasini 2021-yilda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" **2-ilovaga** muvofiq;

O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portali to'g'risidagi nizom **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilansinki:

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portaliga (keyingi o'rnlarda — Portal) egalik qiluvchi, uni texnik qo'llab-quvvatlash va ta'minlash hamda uzlusiz ishlab turishi uchun javobgar hisoblanadi;

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi davlat organlari va tashkilotlarining ochiq ma'lumotlar to'plamlari ro'yxatini shakllantirish, yuritish va yangilash hamda tegishli axborotlarning Portalda o'z vaqtida aks ettirilishi bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirishga mas'ul hisoblanadi;

2021 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida ochiq ma'lumotlar sohasini rivojlantirish konsepsiyasini navbatdagi yillarda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" "Raqamli O'zbekiston — 2030" **strategiyasini** amalga oshirish bo'yicha muvofiqlashtirish komissiyasi (keyingi o'rnlarda — Muvofiqlashtirish komissiyasi) tomonidan har yil yakuniga qadar tasdiqlanadi.

3. Quyidagilar Portalni yuritish va uni yanada takomillashtirishda asosiy vazifalar etib belgilansin:

a) O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi:

Portal faoliyatini qo'llab-quvvatlash, uning sifatli va uzlusiz ishlab turishini ta'minlash;

axborot xavfsizligi sohasidagi talablarga muvofiq ochiq ma'lumotlarning Portalda saqlanishi va himoyalanishini ta'minlash;

Portalni muntazam takomillashtirish va modernizatsiya qilish;

Portalning elektron hukumat axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalari, shuningdek, Korporativ axborot yagona portali bilan integratsiyasini bosqichma-bosqich amalga oshirish;

Portalning funksional imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha belgilangan tartibda choralar ko'rish, tizimdan foydalanish jarayonida davlat organlari va tashkilotlariga texnik yordam ko'rsatish;

b) O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi:

xalqaro tajriba hamda foydalanuvchilarning fikr va mulohazalarini inobatga olgan holda Portalda e'lon qilinadigan davlat organlari va tashkilotlarining ochiq ma'lumotlar to'plamlari ro'yxati (keyingi o'rnlarda — Ro'yxat) muntazam yangilanib turilishi;

2021 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida ochiq ma'lumotlar sohasini rivojlantirish konsepsiyasini navbatdagi yilda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" loyihasini ishlab chiqib, har yilning 1-dekabriga qadar Muvofiqlashtirish komissiyasi tomonidan tasdiqlanishi uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

Ro'yxat asosida davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ma'lumotlarning to'liq joylashtirilishi va ularning o'z vaqtida Portalda aks ettirilishi bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirish, joylashtirayotgan ochiq ma'lumotlar to'plamlarining dolzarbligini baholash;

davlat organlari va tashkilotlarining Portaldan samarali foydalanishlarini ta'minlash, shuningdek, undan samarali foydalanish bo'yicha metodologik yordam ko'rsatish;

mamlakatda ochiq ma'lumotlar sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash;

v) davlat organlari va tashkilotlari:

ochiq ma'lumotlar to'plamlarini tasdiqlangan Ro'yxatda belgilangan muddatlarga qat'iy rioya qilgan holda Portalda va rasmiy veb-saytlarda joylashtirib borish hamda ularning aynan bir xil va o'zaro bog'liqligini ta'minlash;

Portalda joylashtirilgan ochiq ma'lumotlar to'plamlarining dolzarbligini ta'minlash;

Ro'yxatni yangilashda ustuvor xalqaro ma'lumotlar bazalari ko'rsatkichlari va sohadagi nufuzli xorijiy tashkilotlar tavsiyalarini inobatga olgan holda takliflar kiritish;

ma'lumotlarni tayyorlash va Portalda joylashtirish, uni muntazam yangilab turishga mas'ul yuqori malakali kadrlarni biriktirish va doimiy ravishda ularning malakasini oshirib borishni ta'minlash;

aksiyadorlik jamiyatlari bilan bирgalikda Korporativ axborot yagona portaliga ma'lumotlar o'z muddatida va sifatli kiritib borilishini ta'minlash uchun mas'ul etib belgilansin.

4. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi:

a) 2021-yil 1-avgustga qadar Portalning yangi talqinini ishlab chiqib, ishga tushirilishini ta'minlasin. Bunda quyidagilarni inobatga olsin:

ma'lumotlarni standartlashtirilgan shaklda yuritish, interaktiv xaritaga obyektning geografik joylashuv ma'lumotlarini kiritish;

ochiq ma'lumotlar to'plamlarida aholi va tadbirkorlik subyektlarining ehtiyojlarini hisobga olish mexanizmi;

ochiq ma'lumotlar to'plamlarini o'z vaqtida joylashtirish va ularni yangilash ustidan nazorat qilish imkoniyati;

b) uch oy muddatda Portalni elektron hukumat hamda vazirliklar va idoralarning axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalari bilan bosqichma-bosqich integratsiya qilish bo'yicha reja-grafikni ishlab chiqib, tasdiqlash uchun Muvofiqlashtirish komissiyasiga kirtsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi uch oy muddatda:

davlat organlari va tashkilotlari bilan bирgalikda Portalda majburiy e'lon qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlar to'plamlari Ro'yxatini tasdiqlash uchun Muvofiqlashtirish komissiyasiga kirtsin;

manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan bирgalikda ochiq ma'lumotlar sohasidagi xalqaro reytinglar, xususan, "Ochiq ma'lumotlar global indeksi" va "Ochiq ma'lumotlar barometri" reytinglarida O'zbekiston Respublikasining ishtirokini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Xalqaro ochiq ma'lumotlar xartiyasiga qo'shilishi bo'yicha belgilangan tartibda zarur chorallarni ko'rsin.

6. Davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari Ro'yxat asosida Portalda e'lon qilinadigan axborotlarning mazmuniga, to'liqligiga, ishonchliligiga, o'z vaqtida shakllantirilishiga va yangilab turilishiga hamda tegishli axborotlarni shakllantirishda xalqaro metodologik standartlarni, tavsiyalarni o'rganishga va ularning amalda qo'llanilishiga mas'ul ekanliklari belgilab qo'yilsin.

7. Vazirlar Mahkamasining "Ochiq ma'lumotlar taqdim etilishi hisobga olingan holda Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining Hukumat portalini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2015-yil 7-avgustdaggi 232-son [qarori](#) o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. Davlat statistika qo'mitasi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan bирgalikda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

9. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining maslahatchisi — IT-texnologiyalar, telekommunikatsiyalar va innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalari departamenti boshlig'i O.M. Umarov, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi raisi B.A. Begalov va O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sh.M. Sadikov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2020-yil 23-dekabr,
808-son

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrdagi 808-son qaroriga
1-ILOVA

2021 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida ochiq ma'lumotlar sohasini rivojlantirish KONSEPSIYASI

1-bob. Umumiyl qoidalar

1. 2021 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida ochiq ma'lumotlar sohasini rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o'rinnarda — Konsepsiya) ochiq ma'lumotlarni rivojlantirishning strategik yo'naliishlari va tamoyillarini, ma'lumotlarning ochiqligini metodik, tashkiliy va axborot-texnologik qo'llab-quvvatlash tadbirlari hamda rivojlanish bosqichlarini o'z ichiga oladi.

2. O'zbekiston Respublikasida ochiq ma'lumotlar sohasini rivojlantirish ushbu Konsepsiyaiga ilovada keltirilgan asosiy maqsadli ko'rsatkichlar va indikatorlarga erishishga asoslanadi.

3. Konsepsiyaning asosiy maqsadi 2021 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida ochiq ma'lumotlar sohasini takomillashtirishning strategik yo'naliishlarini shakllantirish va rivojlantirishdan, shu bilan birga, davlat organlari faoliyatining shaffofligini ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan muammolarni bartaraf etishdan iborat.

2-bob. O'zbekiston Respublikasida ochiq ma'lumotlar sohasidagi joriy holat

4. 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha **Harakatlar strategiyasi** davlat organlari va tashkilotlarining (keyingi o'rinnarda — davlat organlari) fuqarolar va biznes hamjamiyati bilan o'zaro hamkorligining yangi mexanizmlarini belgilab berdi. Rivojlanishning qabul qilingan ustuvor yo'naliishlariga muvofiq jamoatchilik nazorati, fuqarolik jamiyati institutlari roli sezilarli darajada kuchaytirilib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali davlat xizmatlari ko'rsatishning ochiqligi va sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Mamlakatimizda ushbu yo'naliishda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda, xususan, 2015-yil mart oyida jamoatchilikka taqdim etiladigan ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy ma'lumotlarni turli xil mashinada o'qiladigan formatlarda e'lon qilish imkoniga ega O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portali (keyingi o'rinnarda — Portal) ishga tushirildi.

Ochiq ma'lumotlarni shakllantirish, joylashtirish va qayta ishlash tartibi, davlat organlarining o'z rasmiy veb-saytlarida va Portalda e'lon qilinadigan davlat organlari va tashkilotlarining ochiq ma'lumotlar to'plamlari ro'yxati (keyingi o'rinnarda — Ro'yxat) tasdiqlandi. Hozirgi kunga qadar Portalda 147 ta vazirlik va idoralarning 10 mingdan ortiq ochiq ma'lumotlar to'plamlari joylashtirildi, yuklab olishlar soni esa 7 milliondan oshdi.

Biroq, amalga oshirilgan ishlarga qaramay, ochiq ma'lumotlarning rivojlanishini cheklovchi bir qator muammolar mavjud bo'lib, ularning e'lon qilinishi ko'pchilik davlat organlarida jamiyat hayotini yaxshilash va davlat organlari faoliyatining shaffofligini oshirish bo'yicha ixtiyoriy tashabbus bilan emas, balki ish jarayonini nazorat qilish bilan bog'liq. O'rnatilgan tendensiyaning sababi bir qator omillardan iborat, xususan:

Portalni tartibga solishda kamchiliklarni keltirib chiqaradigan eskirgan, zamonaviy talablarga javob bermaydigan normativ-huquqiy va metodik baza;

ochiq ma'lumotlarni shakllantirish va e'lon qilishda aholi va tadbirkorlik subyektlarining fikr-mulohazalari va ehtiyojlari hisobga olinishining samarali qayta aloqa tizimi mavjud emasligi;

Portalda joylashtiriladigan ma'lumotlarni o'z vaqtida ishlab chiqish, ularni onlayn rejimida yangilash borasida Portalning texnik imkoniyatlari cheklanganligi;

ma'lumotlarni o'z vaqtida yangilash, ularning dolzarbligini ta'minlash hamda o'chiq ma'lumotlarni e'lon qilish natijalari monitoringini olib borish ustidan nazorat tizimi mavjud emasligi;

davlat organlarining nafaqat fuqarolar va biznes uchun, balki idoralararo elektron hamkorlik qilishda davlatning boshqa organlari uchun ham yopiqligi;

davlat organlari faoliyatining o'chiqligini ta'minlashga to'sqinlik qiluvchi shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlashning qat'iy tamoyillari shular jumlasidandir.

3-bob. Ochiq ma'lumotlarni rivojlantirishning strategik yo'nalishlari va tamoyillari

5. 2021 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida o'chiq ma'lumotlar sohasini rivojlantirishning asosiy strategik yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

ochiq ma'lumotlarning normativ-huquqiy bazalarini takomillashtirish;

ma'lumotlarning o'chiqligini metodik qo'llab-quvvatlashni ta'minlash;

ma'lumotlarning o'chiqligini tashkiliy qo'llab-quvvatlash;

ma'lumotlarning o'chiqligini axborot-texnologik qo'llab-quvvatlash.

Bularga qo'shimcha ravishda quyidagi yo'nalishlarda ishlar olib boriladi:

2021-yildan boshlab o'chiq ma'lumotlar bo'yicha hamjamiyatni shakllantirish va Internet jahon axborot tarmog'ida o'chiq ma'lumotlar shaklida faoliyat yuritayotgan ilovalar va xizmatlar bozorini yaratish maqsadida muntazam ravishda "Open Data Day" va "Open Data Weyek"ni o'tkazish;

e'lon qilingan o'chiq ma'lumotlarning monitoringini olib borish, makroiqtisodiy siyosatni ishlab chiqish uchun axborot bazasini kengaytirish, foydalanuvchilar va davlat organlari o'rtaсидаги aloqani mustahkamlash choralarini ko'rish, ma'lumotlar almashinuvini yaxshilash bo'yicha ishlarni amalga oshirish;

mamlakat obro'sini va investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan davlat boshqaruvining o'chiqligi va shaffofligini ta'minlash bo'yicha islohotlarni yanada chuqurlashtirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining o'chiq ma'lumotlar sohasidagi xalqaro reytinglarda ishtirokini ta'minlash va mavqeyini yaxshilashda Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturlarini bajarish;

vazirliklar va idoralar xodimlarini o'chiq ma'lumotlar sohasida tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tashkil etish, ularning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish va takomillashtirish, shuningdek, har yili yuqori darajadagi professionallikni ta'minlash uchun:

a) o'chiq ma'lumotlar sohasida ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy ta'lim standartlari va asosan sohaga oid fanlardan iborat sifat jihatidan yangi ta'lim tizimini joriy etish;

b) mahalliy hamda xorijiy ilmiy va ta'lim muassasalari, xalqaro tashkilotlar bilan o'chiq ma'lumotlar sohasida ilg'or tajriba va ilmiy-tadqiqot yutuqlarini almashish, shuningdek, mutaxassislarni tayyorlash, malaka oshirish va doimiy ravishda stajirovkadan o'tish sohasida hamkorlik qilish.

6. Quyidagilar Ochiq ma'lumotlarni rivojlantirishning asosiy tamoyillari hisoblanadi:

odatiy ravishda o'chiqlik — ma'lumotlarni qonuniy talablardan kelib chiqqan holda o'chiq, bepul va mashinada o'qiladigan formatlarda e'lon qilish hamda ulardan erkin foydalanishni ta'minlash;

o'z vaqtida e'lon qilish va keng qamrovllilik — o'chiq ma'lumotlar to'plamlari ro'yxatini shakllantirish, ma'lumotlarni o'z vaqtida, to'liq va sifatli e'lon qilish, shuningdek, ulardan foydalanish qamrovini kengaytirish;

foydalana olish imkoniyati va qulayligi — axborotdan foydalanuvchilarning barcha toifalari uchun davlat organlarining mashinada o'qiladigan va boshqa formatlardagi o'chiq ma'lumotlaridan foydalanish uchun teng imkoniyatlarni yaratish;

taqqoslash imkoniyatining mavjudligi va o'zaro bog'langanlik — o'chiq ma'lumotlarni izlash, taqqoslash va samarali qayta foydalanishni qo'llab-quvvatlash uchun o'chiq ma'lumotlarni standartlashtirilgan tarkib va formatda taqdim etish hamda o'zaro bog'liqlik;

samarali boshqaruv va fuqarolarni jalb etishga qaratilganlik — ochiq ma'lumotlarni e'lon qilishda hukumat va fuqarolar o'rtaida boshqaruv va ishonchni mustahkamlashga qaratilganlik;

har tomonlama rivojlanish va innovatsiyalarga qaratilganlik — sohadagi ilg'or xorijiy mamlakatlar bilan bilim va tajriba almashish hamda ma'lumotlarni to'plash tartibotlari, standartlari va e'lon qilish jarayonlarining shaffofligini ta'minlash bo'yicha tegishli choralarni ko'rish hamda ochiq ma'lumotlardan foydalanishning innovations usullarini rag'batlantirishga qaratilganlik.

4-bob. Ochiq ma'lumotlarning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish

7. "Ochiq" axborot va ma'lumotlarni aniq belgilash, fragmentlash, takrorlanish va bo'shliqlarni oldini olish maqsadida davlat organlari faoliyati to'g'risidagi axborot va ma'lumotlardan foydalanishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish.

8. Ochiq ma'lumotlar ro'yxatini shakllantirish tartib-taomillarini qayta ko'rib chiqish va modernizatsiya qilish, ularni davlat organlari tomonidan joylashtirish va monitoring olib borish, ochiq ma'lumotlar tizimi ishtirokchilarini tashkiliy qo'llab-quvvatlash hamda ularning huquq va majburiyatlarini hisobga olgan holda, shuningdek, ochiq ma'lumotlar foydalanuvchilari bilan munosabatlarni takomillashtirish hisobiga qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish.

9. Ochiq ma'lumotlarni rivojlantirish sohasida xalqaro hujjatlar imzolanishini tashkil etish va ularni amalga oshirish bo'yicha vazifalar va tadbirlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini, xususan, O'zbekiston Respublikasining Xalqaro ochiq ma'lumotlar Xartiyasiga qo'shilishini so'zsiz ta'minlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish.

5-bob. Ma'lumotlarning ochiqligini metodik qo'llab-quvvatlashni ta'minlash

10. Ochiq ma'lumotlarning shakllanishini hisobga olgan holda ularni takomillashtirishning talab etiladigan darajasi va davriyeligidan kelib chiqib, ochiq ma'lumotlar tuzilmasining tavsifini unifikatsiya qilish, shu jumladan, ochiq ma'lumotlar to'plamlarida yagona ma'lumotnomalar va tasniflagichlardan foydalanishni tartibga solish.

11. Ekspert baholari, yuklamalar bo'yicha statistik ma'lumotlar, foydalanuvchilarning Internet jahon axborot tarmog'ida so'rovlari, qidiruv so'rovlari natijalari, jismoniy va yuridik shaxslardan ochiq ma'lumotlarni olish bo'yicha so'rovlар asosida joylashtirilgan ma'lumotlar to'plamiga bo'lgan talabni baholash tartibini ishlab chiqish.

12. Portalda taqdim etiladigan ochiq ma'lumotlarni hisobga olgan holda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish holatini baholash tartibini qayta ko'rib chiqish va davlat organlarining rasmiy veb-saytlarida "ochiq ma'lumotlar" bo'limidagi bandlarni batafsil o'rganib chiqish.

13. Portal bilan integratsiya qilish bo'yicha ishlab chiqilayotgan tizimlarda integratsiyalash imkoniyati mavjudligi to'g'risidagi talablarni inobatga olgan holda davlat axborot tizimlarining texnik topshiriqlarini ko'rib chiqish va ekspertizadan o'tkazish tartibini takomillashtirish.

14. Ochiq ma'lumotlar sohasidagi metodik bazani umume'tirof etilgan ilg'or xalqaro standartlar va tavsiyalar, shu jumladan, shartnomalar bo'yicha ochiq ma'lumotlar standarti, moliyalashtirish bo'yicha ochiq standart, yordam ko'rsatishning shaffofligi bo'yicha xalqaro tashabbus asosida takomillashtirish.

15. Ochiq ma'lumotlarning dolzarbligini ta'minlash maqsadida ularning e'lon qilinishi natijalari bo'yicha muntazam monitoring olib borish. Jumladan:

a) "Kontekst" monitoringi — siyosiy va normativ-huquqiy muhit, institutsional tayyorgarlik, kadrlar salohiyati, fuqarolarning ishtiroki, innovatsiyalarni moliyalashtirish va texnologik infratuzilma kabi ochiq ma'lumotlar konsepsiyasini joriy etishning asosiy jihatlari holatini tizimli diagnostika qilish;

b) "Ma'lumotlar sifati va talabi" monitoringi — talab qilingan ma'lumotlar jamiyat uchun eng katta qiziqish va ahamiyatga ega bo'lgan axborot sifatida tushuniladi. "Sifatli" ma'lumotlar chuqur detallashtirish, ochiqlikning texnik, huquqiy va amaliy parametrlari kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Ma'lumotlar sifati va ularga talab yuqori bo'lganlarining monitoringini olib borish metodikasi jahon hamjamiyati tomonidan qo'llaniladigan mavjud baholash tizimlari asosida ishlab chiqilishi kerak;

v) "Ma'lumotlardan foydalanilganlik" monitoringi — foydalanuvchilar toifasi va ma'lumotlardan foydalanish maqsadlarni o'rGANISH. Ochiq ma'lumotlardan foydalanish monitoringi ochiq ma'lumotlar portalida va davlat organlarining veb-saytlarida jamoatchilik fikri so'roviga asoslangan bo'lishi kerak.

g) "Ijtimoiy-iqtisodiy ta'sir" monitoringi — ochiq ma'lumotlardan foydalanishdan olingen imtiyozlarni baholash. Potensial foya ijtimoiy, ekologik, siyosiy va iqtisodiy jihatlar doirasida o'rganilishi mumkin.

16. Ta'sir etish monitoringi usuli davlat ma'lumotlarini oshkor qilishning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini prognozlashtirish va baholash (investitsion jozibadorlik va tadbirkorlik muhiti, davlat va jamoat sektorlarida iqtisodiy samaradorlik, xavf-xatarlarni tahlil qilish, ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlar) asosida ishlab chiqiladi.

6-bob. Ma'lumotlarning ochiqligini tashkiliy qo'llab-quvvatlash

17. Ochiq ma'lumotlarni ishlab chiqish sohasidagi davlat siyosatini shakllantiruvchi organ, Portal operatori, ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar va foydalanuvchilarning funksiyalari va vazifalarini aniq belgilab berish.

18. Ochiq ma'lumotlar sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning ochiqligi va sifatini oshirishga, shu jumladan, ochiq ma'lumotlar yetkazib beruvchilarning huquqlari, majburiyatları va mas'uliyatini qonun hujjatlari darajasida mustahkamlash hisobiga ma'lumotlar yetkazib beruvchilarning mas'uliyatini va qiziqishini kuchaytirish.

19. Muntazam ravishda yetakchi ekspertlarni jalg qilgan holda ochiq ma'lumotlar bo'yicha respublika va xalqaro konferensiylar hamda sammitlarni tashkil etish.

20. Ilg'or xalqaro tajribadan foydalangan holda ochiq ma'lumotlar bilan ishlovchi mas'ul rahbar va xodimlarni doimiy o'qitish jarayonini tashkil etish.

21. Ochiq ma'lumotlar bo'yicha hamjamiyatni shakllantirish va Internet jahon axborot tarmog'ida ochiq ma'lumotlardan foydalangan holda faoliyat yuritayotgan dasturiy mahsulotlar va xizmatlar bozorini yaratish va takomillashtirish, davlat-xususiy sheriklikni mustahkamlash maqsadida "Open Data Challenge" va "Xakaton"larni muntazam ravishda o'tkazish choralarini ko'rish.

22. O'tkazilayotgan tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish va foydalanuvchilar, shu jumladan, chet ellik foydalanuvchilarning ochiq ma'lumotlardan foydalanishini ommalashtirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish.

23. Xalqaro arenalarda mamlakatning ochiqlik sohasida, ochiq ma'lumotlarning rivojlanish darajasi va foydalanish imkoniyati bo'yicha obro'sini mustahkamlash, shu jumladan, istiqbolli xalqaro reyting va hisobotlarda mamlakat o'rnini yaxshilash.

7-bob. Ma'lumotlarning ochiqligini axborot-texnologik qo'llab-quvvatlash

24. Foydalanuvchilarga qulaylik yaratish hamda Portal faoliyati sifatini oshirish maqsadida Portal infratuzilmasi va dasturiy platformasini modernizatsiya qilish.

25. Portalning funksional vositalarini rivojlantirish, ochiq ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish uchun foydalanuvchilar jamoasini jalg qilishda kraudsorsingdan keng foydalanish.

26. Davlat organlarining axborot tizimlarida mavjud bo'lgan elektron ma'lumotlarni o'rGANISH jarayonida ochiq ma'lumotlar ro'yxatini shakllantirish tartibini modernizatsiya qilish va qayta ko'rib chiqish.

8-bob. Konsepsiyanı amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar

27. Konsepsiyanı amalga oshirishdan quyidagi natijalar kutilmoqda:

davlat organlari faoliyatining shaffofligi va hisobdorligini oshirish;

davlat organlari faoliyatini nazorat qilish va monitoring olib borish imkoniyati orqali fuqarolik jamiyatini rivojlantirish;

fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchini oshirish;

"Ochiq Hukumat" konsepsiyasini amalga oshirish uchun axborot bazasini yaratish;

Internet jahon axborot tarmog'ida ochiq ma'lumotlar shaklida faoliyat yuritayotgan ilovalar va xizmatlar bozorini shakllantirishga ko'maklashish;

ijtimoiy-foydali xizmatlar ishlab chiqishda budget xarajatlarini tejash;
davlat organlari o'rtasida axborot almashish imkoniyatlarini kengaytirish.

9-bob. Konsepsiyaning amalga oshirilishi monitoringini olib borish

28. Konsepsiyaning amalga oshirilishining tizimli monitoringini olib borish, umumiyluvchi muvofiqlashtirish, respublikada ochiq ma'lumotlar sohasi rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi muammoli masalalarni tezkor ko'rib chiqish va hal qilish O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

29. Konsepsiyani amalga oshirish monitoringi ushbu Konsepsiyada nazarda tutilgan tadbirlarni o'z vaqtida, sifatli va to'laqonli bajarish bo'yicha davlat organlari faoliyatini baholash asosida amalga oshiriladi.

2021 — 2025-yillarda O'zbekiston
Respublikasida ochiq ma'lumotlar
sohasini rivojlantirish konsepsiyasiga
ILOVA

2021 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida ochiq ma'lumotlar sohasini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish natijasida erishiladigan

ASOSIY MAQSADLI KO'RSATKICHLAR VA INDIKATORLAR

Ko'rsatkichlar nomi	O'Ichov birligi	Joriy ko'rsatkich	Rejalashtirilgan ko'rsatkichlar				
			2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil
I. O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portaliga ma'lumotlar to'plamlarini joylashtirish							
Ochiq ma'lumotlar portaliga joylashtirilgan ma'lumotlar to'plamlari soni	ming, dona	9,2	10,0	11,2	12,0	12,5	13,0
Ochiq ma'lumotlar portaliga integratsiya qilish orqali avtomatik ravishda joylashtirilgan ma'lumotlar to'plamlari soni	dona	-	100	200	1 000	4 000	6 500
II. Ochiq ma'lumotlar asosida dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish							
Ochiq ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan dasturiy mahsulotlar va mobil ilovalar	dona	5	10	15	20	25	30
III. Ochiq ma'lumotlar sohasini ommalashtirish bo'yicha seminarlar, konferensiylar, vebinarlar, anjumanlar va tadbirlar tashkil qilish va ishtirok etish							
Seminarlar, konferensiylar, vebinarlar, anjumanlar	dona	15	20	25	30	35	40
IV. Ochiq ma'lumotlar sohasida davlat organlari va idoralari xodimlarini o'qitish va malakasini oshirish							
Davlat organlari va idoralari xodimlarini o'qitish va malakasini oshirish	nafar	120	150	170	200	220	250

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrdagi 808-son qaroriga
2-ILOVA

2021 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida ochiq ma'lumotlar sohasini rivojlantirish konsepsiyasini 2021-yilda amalga oshirish bo'yicha

"YO'L XARITASI"

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
I. Ochiq ma'lumotlarning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish va ma'lumotlarning ochiqligini metodik qo'llab-quvvatlash				
1.	Ochiq ma'lumotlarning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish.	"Ochiq" axborot va ma'lumotlarni aniq belgilash, fragmentlash, takrorlanish va bo'shliqlar mavjudligining oldini olish maqsadida davlat organlari faoliyati to'g'risidagi axborot va ma'lumotlardan foydalanishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish.	2021-yil iyun	Davlat statistika qo'mitasi, Axborot texnologiyalari vazirligi
2.	Ochiq ma'lumotlar ro'yxatini shakllantirish, tasdiqlash hamda tasdiqlangan ro'yxat asosida davlat organlari tomonidan ochiq ma'lumotlar to'plamlari to'liq e'lon qilinishi, ularning dolzarbli monitoringini olib borish.	<p>1. Ustuvor xalqaro ma'lumotlar bazalari ko'satkichlari va nufuzli xorijiy tashkilotlar tavsiyalarini, shuningdek, foydalanuvchilarning taklif va ehtiyojlarini inobatga olgan holda ochiq ma'lumotlar ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>2. Ochiq ma'lumotlar ro'yxatini zaruratga ko'ra, biroq yiliga bir martadan ko'p bo'limgan holda qayta ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun Muvofiqlashtirish komissiyasiga kiritish.</p> <p>3. Tasdiqlangan ro'yxat asosida davlat organlari tomonidan ochiq ma'lumotlar to'plamlari to'liq e'lon qilinishi hamda ularning dolzarbli monitoringini olib borish.</p>	2021-yil yanvar Har yili 1-dekabrga qadar Doimiy ravishda	Davlat statistika qo'mitasi, manfaatdor vazirliklar va idoralar
3.	Ochiq ma'lumotlarni rivojlantirish sohasida xalqaro hujjatlarni imzolanishini tashkil etish va ularni amalga oshirish bo'yicha vazifalar va tadbirlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini, xususan, O'zbekiston Respublikasining "Xalqaro ochiq ma'lumotlar Xartiyasi"ga qo'shilishi bo'yicha ishlarni amalga oshirish.	<p>1. O'zbekiston Respublikasining Xalqaro ochiq ma'lumotlar Xartiyasiga a'zo bo'lishi yuzasidan hujjatlarni rasmiylashtirish.</p> <p>2. O'zbekiston Respublikasida Xalqaro ochiq ma'lumotlar Xartiyasi tamoyillarini joriy qilish bo'yicha Milliy harakatlar rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha muvofiqlashtirish komissiyasiga kiritish.</p>	2021-yil fevral 2021-yil sentyabr	Davlat statistika qo'mitasi, Axborot texnologiyalari vazirligi
4.	Ochiq ma'lumotlar sohasini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.	Metodik bazani umume'tirof etilgan ilg'or xalqaro standartlar va tavsiyalar, shu jumladan, shartnomalar bo'yicha ochiq ma'lumotlar standarti, moliyalashtirish bo'yicha ochiq standart, yordam ko'rsatishning shaffofligi bo'yicha xalqaro tashabbus asosida takomillashtirish.	2021-yil dekabr	Davlat statistika qo'mitasi, Axborot texnologiyalari vazirligi, manfaatdor vazirliklar va idoralar
5.	Ochiq ma'lumotlarni baholash mexanizmini yaratish	1. Ochiq ma'lumotlar sifatini baholash bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani o'rganish.	2021-yil may	Davlat statistika qo'mitasi, Axborot texnologiyalari vazirligi

	2. Ekspert baholari, yuklamalar bo'yicha statistik ma'lumotlar, foydalanuvchilarning Internet so'rovlari, qidiruv so'rovlari natijalari, jismoniy va yuridik shaxslardan ochiq ma'lumotlarni olish bo'yicha so'rovlар asosida joylashtirilgan ma'lumotlar to'plamiga bo'lgan talabni baholash tartibini ishlab chiqish.	2021-yil sentyabr	
6.	<p>Yagona ma'lumotlar tuzilmasini shakllantirish.</p> <p>1. Ochiq ma'lumotlarning shakllanishini hisobga olgan holda ularni takomillashtirishning talab qilinadigan darajasi va davriyligi, shu jumladan, ochiq ma'lumotlar to'plamlarida yagona ma'lumotnomalar va tasniflagichlardan foydalanishni tartibga solish masalasini nazarda tutgan holda ochiq ma'lumotlar tuzilmasining tavsifini unifikatsiya qilish.</p> <p>2. Ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarning ushbu yaratilgan yagona struktura orqali ma'lumotlarni shakllantirishni ta'minlash.</p>	<p>2021-yil may</p> <p>Doimiy ravishda</p>	<p>Davlat statistika qo'mitasi, manfaatdor vazirliklar va idoralar</p> <p>Manfaatdor vazirliklar va idoralar</p>

II. Ma'lumotlarning ochiqligini tashkiliy qo'llab-quvvatlash

7.	<p>Ma'lumotlardan foydalanishni rag'batlantirish va natijalarni keng jamoatchilikka taqdim etish.</p> <p>1. Etakchi ekspertlarni jalb qilgan holda ochiq ma'lumotlar bo'yicha respublika va xalqaro konferensiyalar hamda sammitlarni tashkil etishni joriy qilish.</p> <p>2. Ochiq ma'lumotlar kuni "Open Data Day"ni o'tkazish.</p> <p>3. Ochiq ma'lumotlar haftaligi "Open Data Week"ni o'tkazish.</p> <p>4. Ilg'or xalqaro tajribadan foydalangan holda ochiq ma'lumotlar bilan ishlovchi mas'ul rahbar va xodimlarni o'qitishni tashkil etish.</p> <p>5. Ochiq ma'lumotlar bo'yicha hamjamiyatni shakllantirish va Internet jahon axborot tarmog'ida ochiq ma'lumotlardan foydalangan holda faoliyat yuritayotgan dasturiy mahsulotlar va xizmatlar bozorini yaratish va takomillashtirish maqsadida "Open Data Challenge" va "Xakaton"kabi tadbirlarni tashkil etish.</p> <p>6. O'tkazilgan tadbirlarni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish hamda mahalliy va xorijiy foydalanuvchilar ochiq ma'lumotlardan foydalanishini ommalashtirish.</p>	<p>Doimiy ravishda</p> <p>2021-yil mart</p> <p>2021-yil dekabr</p> <p>Aloho'da grafikka muvofiq</p> <p>Doimiy ravishda</p> <p>Doimiy ravishda</p>	<p>Davlat statistika qo'mitasi, Axborot texnologiyalari vazirligi, manfaatdor vazirliklar va idoralar</p>
----	---	---	---

8.	O'zbekiston Respublikasining ochiq ma'lumotlar sohasidagi xalqaro nufuzli reytinglarda ishtirokini ta'minlash.	Ma'lumotlarning ochiqligi, rivojlanish darajasi va mavjudligi, jumladan, istiqbolli xalqaro reyting va hisobotlarda mamlakatning mavqeyini yaxshilash hisobiga xalqaro maydonda mamlakat obro'sini mustahkamlash bo'yicha ishlar olib borish.	Doimiy ravishda	Davlat statistika qo'mitasi, Axborot texnologiyalari vazirligi, manfaatdor vazirliklar va idoralar
----	--	---	-----------------	--

III. Ma'lumotlarning ochiqligini axborot-texnologik qo'llab-quvvatlash

9.	Foydalanuvchilarga qulaylik yaratish hamda Ochiq ma'lumotlar portali faoliyati sifatini oshirish maqsadida Portalning infratuzilmasi va dasturiy platformasini modernizatsiya qilish.	1. Ochiq ma'lumotlar portalining yangi talqinini ishlab chiqish bo'yicha loyiha-texnik hujjatlarni ishlab chiqish va ekspertizadan o'tkazish. 2. Ochiq ma'lumotlar portalining yangi talqinini ishlab chiqish bo'yicha ijrochini aniqlash. 3. Ochiq ma'lumotlar portalining yangi talqinini ishga tushirish.	2021-yil fevral 2021-yil mart 2021-yil iyul	Axborot texnologiyalari vazirligi
10.	Ochiq ma'lumotlar portali faoliyatini takomillashtirish.	1. Portalning funksional vositalarini rivojlantirish, ochiq ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish uchun foydalanuvchilar jamoasini jalb qilishda kraudsorsingdan keng foydalanish. 2. Davlat organlarining axborot tizimlarida mavjud bo'lgan elektron ma'lumotlarni o'rghanish jarayonida ochiq ma'lumotlar ro'yxatini shakllantirish tartibini qayta ko'rib chiqish.	Doimiy ravishda Zaruratga ko'ra, yiliga bir martadan ko'p bo'Imagan holda	Axborot texnologiyalari vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrdagi 808-son qaroriga
3-ILOVA

O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portali to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiyy qoidalar

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portalining maqsad va vazifalarini, uning operatori, ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchilari va foydalanuvchilari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik tartibini belgilaydi.

2. O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portali operatori O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi hisoblanadi.

3. O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portalini texnik qo'llab-quvvatlash, uning funksional imkoniyatlarini takomillashtirish, uzlusiz ishlashini ta'minlash hamda idoraviy axborot tizimlari va resurslari bilan integratsiya qilish bo'yicha ishlarni tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

4. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portali (keyingi o'rnlarda — Portal) — Internet jahon axborot tarmog'idagi O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali doirasida faoliyat ko'rsatuvchi hamda davlat organlari va tashkilotlarining ochiq ma'lumotlarini joylashtirish uchun mo'ljallangan, ochiq ma'lumotlarni e'lon qilishda va ulardan foydalanishda Portal operatori, ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar va foydalanuvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni ta'minlovchi data.gov.uz elektron manzilida joylashgan axborot resursi;

ochiq ma'lumotlar — ko'p marotaba, erkin va bepul foydalanish maqsadida mashinada o'qiladigan formatda Internet jahon axborot tarmog'ida joylashtirilgan davlat organlari va tashkilotlarining axboroti;

mashinada o'qiladigan format — ma'lumotlarni dasturiy qayta ishlashni ta'minlovchi, ushbu ma'lumotlarni taqdim etishning elektron formati;

ochiq ma'lumotlar to'plami — ochiq ma'lumotlarning bir turdag'i elementlari va ularni tavsiflovchi atributlar majmui;

ochiq ma'lumotlar to'plami pasporti — ochiq ma'lumotlar to'plamini bir xil identifikatsiya qilish imkonini beruvchi ushbu to'plam to'g'risidagi ma'lumotlar majmui;

Portal operatori — davlat organlari va tashkilotlarining ochiq ma'lumotlar to'plamlari ro'yxatini (keyingi o'rinnarda — Ro'yxat) shakllantirish, yangilash va ularga ochiq ma'lumotlar sohasida metodologik yordam ko'rsatuvchi hamda Portaldan foydalanish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtiruvchi yuridik shaxs;

ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar — Portalda ochiq ma'lumotlar to'plamlarini joylashtiradigan davlat organlari va tashkilotlari. Ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar sifatida xo'jalik yurituvchi subyektlar va nodavlat notijorat tashkilotlar ham ishtirok etishlari mumkin;

foydanuvchilar — Portalda joylashtirilgan ochiq ma'lumotlardan foydalana oluvchi jismoniy va yuridik shaxslar.

5. Davlat organlari va tashkilotlarida axborotni tayyorlash va Portalda joylashtirish vazifasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida" 2019-yil 17-yanvardagi PF-5635-son [Farmoniga](#) muvofiq tashkil qilingan, xalqaro reytinglar bilan ishlash va "Elektron hukumat" tizimini joriy etish uchun mas'ul bo'lgan ixtisoslashtirilgan bo'linmalar tomonidan amalga oshiriladi.

6. O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portalida e'lon qilinadigan ma'lumotlar to'plamlari ro'yxatini shakllantirish [1-ilovaga](#) muvofiq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

2-bob. Portalning maqsadi va vazifalari

7. Quyidagilar Portalning maqsadi hisoblanadi:

yagona axborot resursida mavjud bo'lgan ochiq ma'lumotlar to'plamlari to'g'risida to'liq ma'lumotni taqdim etish;

ochiq ma'lumotlarni shakllantirish, e'lon qilish va ulardan foydalanish bo'yicha yagona aloqa platformasini yaratish;

ochiq ma'lumotlar sohasida yagona texnologik siyosatni shakllantirish va amalga oshirish;

foydanuvchilarga Internet jahon axborot tarmog'idagi ochiq ma'lumotlardan foydalanishning yagona elektron maydonini taqdim etish;

Internet jahon axborot tarmog'ida ochiq ma'lumotlarga kirishni va ulardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash;

davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash;

foydanuvchilarning ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar bilan o'zaro hamkorligini oshirish;

ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar va ularning faoliyati to'g'risida hamma erkin foydalana olishi mumkin bo'lgan axborotni olishda foydanuvchilar uchun byurokratik to'siqlar va to'g'anoqlarni qisqartirish va bartaraf etish.

8. Quyidagilar Portalning asosiy vazifalari hisoblanadi:

ochiq ma'lumotlarni e'lon qilishning yagona texnologik va metodologik prinsiplarini tarqatish;

joylashtirilgan ochiq ma'lumotlardan ko'p marotaba, erkin va bepul foydalanishni ta'minlash;

foydanuvchilarning ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar bilan, shu jumladan, joylashtirilgan ochiq ma'lumotlarning dolzarbligi, yangi ochiq ma'lumotlarni e'lon qilish bo'yicha

takliflarni ko'rib chiqish va ochiq ma'lumotlarni olishda foydalanuvchilar uchun shart-sharoitlarni yaxshilash masalalari yuzasidan o'zaro aloqalarini ta'minlash;

ma'lumotlar yangilanishi ustidan nazorat qilishning yagona texnologik platformasini, shuningdek, ma'lumotlarni dolzarb holatda saqlab turish maqsadida ochiq ma'lumotlarni e'lon qilish natijalari monitoringi olib borilishini tashkil qilish.

Portalda joylashtiriladigan ma'lumotlar bilan davlat organlari va tashkilotlari, jismoniy va yuridik shaxslarning shaxsiy manfaat maqsadida tanishib chiqishi, yuklab olishi va ulardan foydalanishi bepul tarzda amalga oshiriladi. Tijorat va xo'jalik faoliyatini yuritish maqsadida Portal bilan elektron hamkorlikni yo'lga qo'yish (API interfeyslaridan foydalangan holda) orqali foydalanish bundan mustasno.

3-bob. Portalda joylashtirish uchun taqdim etiladigan ochiq ma'lumotlar to'plamlariga qo'yiladigan talablar

9. Ochiq ma'lumotlar to'plamlarini rasmiylashtirish lotin alifbosidan foydalanilgan holda davlat tilida va ingлиз tilida, shuningdek, kirill alifbosidan foydalanilgan holda rus tilida grammatik, orfografik va punktuatsiya qoidalariga rioya etilgan holda taqdim etiladi. Ochiq ma'lumotlar to'plamlari ularni joylashtirish imkoniyati va texnik vositalar mavjud bo'lganda qo'shimcha ravishda boshqa tillarda ham taqdim etilishi mumkin.

10. Ochiq ma'lumotlar to'plamlari ularni rasmiylashtirish formatlari va qoidalarining quyidagi talablariga javob berishi kerak:

mashinada o'qiladigan formatda (XLSX, CSV, XML, JSON, RDF) e'lon qilinishi kerak;

ochiq ma'lumotlar to'plamlaridagi ma'lumotlar ulardan dasturiy interfeys orqali avtomatik foydalana olish imkoniyati bilan ta'minlanishi kerak;

ochiq ma'lumotlar to'plamining saqlanadigan versiyalari soni foydalanuvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda saqlash uchun resurs imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanadi;

ochiq ma'lumotlar to'plamarining tuzilmasi ochiq ma'lumotlar to'plamining har bir axborot maydoni tavsifini namoyish etishi kerak;

ochiq ma'lumotlar to'plamining tuzilmasi o'zgartirilganda tuzilmaning versiyaliligi va bu versiyaning ochiq ma'lumotlarning keyingi to'plamlariga mos kelishi ta'minlanishi kerak. Ochiq ma'lumotlar to'plamlari tuzilmasining har bir saqlanadigan versiyasi havolaga ega bo'lishi kerak.

11. Portalda e'lon qilinadigan ma'lumotlar "[Davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligi to'g'risida](#)" va "[Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida](#)"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida shakllantiriladi.

12. Ochiq ma'lumotlar to'plamiga kiritiladigan axborot quyidagi talablarga javob berishi kerak:

jismoniy shaxslarning shaxsiy ma'lumotlaridan foydalana olishni ta'minlamasligi kerak;

davlat, bank, tijorat, soliq sirini yoki qonun bilan muhofaza qilinadigan boshqa sirni o'z ichiga olgan ma'lumotlarni, shuningdek, maxfiy axborotni oshkor qilmasligi kerak;

noto'g'ri ma'lumotlarni o'z ichiga olmasligi kerak;

qonun hujjatlari bilan taqiqlangan boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olmasligi kerak.

13. Portaldagi axborotlar:

faqat davlat organlari va tashkilotlarining respublika darajasidagi yuqori turuvchi tuzilmalari, shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan e'lon qilinadi;

o'zbek, rus va ingлиз tillarida mashinada o'qiladigan va boshqa formatlarda e'lon qilinadi;

davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinadigan axborot bilan aynan bir xil va o'zaro bog'langan bo'lishi lozim.

14. Portalda quyidagi birlamchi ma'lumotlar ochiq ma'lumotlar shaklida majburiy joylashtirilishi lozim:

ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchi faoliyati to'g'risida erkin foydalanilishi mumkin bo'lgan umumiyl ma'lumotlar;

ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchi faoliyatining asosiy sohalari bo'yicha statistik ma'lumotlar;

davlat axborot tizimlari va axborot resurslarida mavjud bo'lgan, oshkor etilishi qonun hujjatlari bilan cheklanmagan ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchining ma'lumotlari va axboroti;

foydanuvchilar o'rtasida hamda minoritar va portfel investorlari tomonidan yuqori darajada talab qilinadigan ma'lumotlar va axborot;

ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchi tomonidan yaratilgan yoki o'z vakolatlarini amalga oshirishda unga kelib tushgan erkin foydalanilishi mumkin bo'lgan axborot.

15. Davlat organlari va tashkilotlarining Internet jahon axborot tarmog'ida ochiq ma'lumotlar shaklida joylashtirilishi kerak bo'lgan axboroti hamda ularni joylashtirish muddatlari va yangilash davriyligi O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan ishlab chiqiladigan va "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha muvofiqlashtirish komissiyasi (keyingi o'rnlarda — Muvofiqlashtirish komissiyasi) tomonidan tasdiqlangan ro'yxatga muvofiq amalga oshiriladi.

Ro'yxat zaruratga ko'ra, biroq yiliga bir martadan ko'p bo'lmagan holda ustuvor xalqaro ma'lumotlar bazalari ko'rsatkichlari va sohadagi nufuzli xorijiy tashkilotlar tavsiyalari, shuningdek, foydanuvchilarning taklif va ehtiyojlaridan kelib chiqib qayta ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

16. Ochiq ma'lumotlar shaklida joylashtiriladigan axborotlar qo'l mehnati yordamida hamda avtomatlashtirilgan rejimda taqdim etilishi mumkin.

17. Portalda joylashtirish uchun taqdim etiladigan axborot dolzarb, ishonchli, to'liq bo'lisi, shu bilan birga, davlat sirlarini yoki qonun bilan muhofazalangan boshqa sirlarni o'z ichiga olmagan holda davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytlaridagi axborot bilan aynan bir xil bo'lisi kerak.

4-bob. Portal operatorining huquq va majburiyatları

18. Portal operatorining huquqlari:

Portalni rivojlantirish bo'yicha takliflar kiritish;

Portalning funksional imkoniyatlariga o'zgartirish bo'yicha takliflar kiritish;

ustuvor xalqaro ma'lumotlar bazalari ko'rsatkichlari va sohalar bo'yicha nufuzli xorijiy tashkilotlar tavsiyalari, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablari, shuningdek, Portaldan foydanuvchilarning taklif va ehtiyojlarini inobatga olib Ro'yxatga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shu jumladan, e'lon qilingan ochiq ma'lumotlar to'plamlarini yangilash va dolzarbli masalalari bo'yicha takliflarni o'rganib chiqish;

Ro'yxat asosida davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ma'lumotlar to'liq joylashtirilishi va ularning o'z vaqtida Portalda aks ettirilishi bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish;

monitoring natijalariga asoslangan holda Portalda ochiq ma'lumotlar to'plamlarini e'lon qilish va yangilash tartibini buzgan ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar yuzasidan vakolatli organga taqdimnomaga kiritish.

19. Portal operatorining majburiyatları:

yetkazib beruvchilarning rasmiy veb-saytlarida va Portalda e'lon qilinishi majburiy bo'lgan Ochiq ma'lumotlar to'plamlari ro'yxatini umumlashtirish hamda yangilanishning aniq muddatlarini va davriyigini belgilagan holda tasdiqlash uchun Muvofiqlashtirish komissiyasiga kiritish;

ochiq ma'lumotlar mavzularini ommalashtirish;

Portalning funksional imkoniyatlari o'zgarganligi to'g'risida Portal foydanuvchilarini xabardor qilish;

ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarning Portalga kirishini ta'minlash;

Portalda e'lon qilingan ochiq ma'lumotlar to'plamlari dolzarbligini doimiy monitoringini olib borish;

ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar tomonidan biriktirilgan mas'ul shaxslarning ochiq ma'lumotlar sohasiga doir tashkil etilgan o'quv kurslarida malakasini oshirib borish;

foydanuvchilardan kelib tushgan takliflarni, ularning kelib tushgan kundan boshlab bir kun muddatda qayta ishlash va tegishli ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarga ko'rib chiqish uchun yuborish;

Portalda ochiq ma'lumotlar to'plamlariga bo'lган talab statistikasini e'lon qilishni ta'minlash;

Portaldagi ochiq ma'lumotlar to'plamlarini yangilash muddati kechiktirilgan taqdirda, ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchini xabardor qilish;

davlat organlari va tashkilotlarining Portaldan samarali foydalanishlarini ta'minlash, shuningdek, undan foydalanish masalasida metodologik yordam ko'rsatish.

5-bob. Portalni texnik qo'llab-quvvatlovchining huquq va majburiyatları

20. Portalni texnik qo'llab-quvvatlovchining huquqlari:

ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarning idoraviy axborot tizimlari va resurslarini Portal bilan integratsiyalashga qo'yiladigan talablarni belgilash;

keyinchalik Portal operatoriga xabar qilish orqali Portalning funksional imkoniyatlariga o'zgartirishlar kiritish;

Portal operatori bilan kelishgan holda Portalni rivojlantirish bo'yicha takliflar kiritish.

21. Portalni texnik qo'llab-quvvatlovchining majburiyatları:

Portalni texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash, uzluksiz ishlashi va funksional imkoniyatlarini takomillashtirish ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirishni ta'minlash;

jismoniy va yuridik shaxslarning so'roviga asosan belgilangan tartibda shartnomaga asosida Portalda joylashtirilgan ochiq ma'lumotlar to'plami ma'lumotlari elektron hamkorlik orqali avtomatlashtirilgan holda taqdim etilishni tashkil qilish;

axborot xavfsizligi talablaridan kelib chiqqan holda Portaldagi ochiq ma'lumotlarni himoya qilish va saqlash.

6-bob. Ochiq ma'lumotlar to'plamining pasportini rasmiylashtirish

22. Ochiq ma'lumotlar to'plamining pasporti lotin alifbosidan foydalanilgan holda davlat tilida tuzilgan bo'lishi kerak. Ochiq ma'lumotlar to'plamining pasporti qo'shimcha ravishda boshqa tillarda ham tuzilishi mumkin.

23. Ochiq ma'lumotlar to'plamining pasportini rasmiylashtirish quyidagi talablar asosida amalga oshiriladi:

shrifti — "Times New Roman";

shrift o'lchami — 14;

joylashishi — sahifaning chap tomoni bo'yicha.

24. Ochiq ma'lumotlar to'plamining pasportini to'ldirish ushbu Nizomga [2-ilovaga](#) muvofiq shaklda amalga oshiriladi.

7-bob. Ochiq ma'lumotlar bilan ishlashda Portal operatori, ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar va foydalanuvchilarning o'zaro munosabati tartibi

25. Ochiq ma'lumotlarni Portala joylashtirish va ular bilan ishlashda Portal operatori va ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarning o'zaro munosabatlari ushbu Nizomga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

26. Ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchi Portala o'z shaxsiy kabinetini ochish uchun mas'ul shaxsning ma'lumotlarini ko'rsatgan va zarur materiallarni ilova qilgan holda Portal operatoriga rasmiy so'rov yuboradi.

27. Ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchidan rasmiy so'rovni olgandan keyin Portal operatori mas'ul shaxsga ochiq ma'lumotlar to'plamlarini e'lon qilish uchun Portala shaxsiy kabinetga kirish imkoniyatini taqdim etadi.

28. Ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchi mas'ul shaxs ro'yxatdan o'tib, shaxsiy kabinetga kirish imkoniyatiga ega bo'lganidan so'ng Portala ochiq ma'lumotlar to'plamlarini e'lon qiladi.

29. Har bir foydalanuvchi Internet jahon axborot tarmog'i orqali data.gov.uz veb-saytida Portaldagi ochiq ma'lumotlardan foydalanish huquqiga ega.

30. Foydalanuvchilar Portal operatoriga Portalning dasturiy-texnik vositalaridan foydalangan holda uning faoliyat ko'rsatish masalalari bo'yicha va ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarga Portalda joylashtirilgan ochiq ma'lumotlar to'plamlari yuzasidan axborot xabarlarini yuborishga haqlidir.

31. Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan biriktirilgan mas'ul rahbar va xodimlarning Portal operatori tomonidan tashkil etilgan Portal bilan ishlash, jumladan, ochiq ma'lumotlar to'plamlarini joylashtirish bo'yicha ko'nikmalarini hosil qilish va rivojlantirishga qaratilgan o'quv kurslarida malakasini oshirib borishlariga zarur sharoit yaratib berilishi lozim.

32. Portaldagi ochiq ma'lumotlar to'plamlaridan foydalanishda ochiq ma'lumotlardan foydalanish shartlari yoki ularga bo'lgan havolani ko'rsatish zarur.

8-bob. Ochiq ma'lumotlar to'plamini va ochiq ma'lumotlar to'plamining pasportini Internet jahon axborot tarmog'ida joylashtirish tartibi

33. Ochiq ma'lumotlar to'plamini va ochiq ma'lumotlar to'plamining pasportini Internet jahon axborot tarmog'ida joylashtirish, Portalda joylashtirishdan tashqari, davlat organining rasmiy veb-saytida ham amalga oshiriladi.

34. Ochiq ma'lumotlar to'plamini va ochiq ma'lumotlar to'plamining pasportini davlat organining rasmiy veb-saytida joylashtirish uchun quyidagilar zarur:

ochiq ma'lumotlar to'plamlarini mashinada o'qiladigan formatda e'lon qilish uchun "Ochiq ma'lumotlar" bo'limini yaratish;

veb-saytning bosh sahifasida "Ochiq ma'lumotlar" bo'limiga vizual farqlanadigan havolani kiritish;

"Ochiq ma'lumotlar" bo'limida ochiq ma'lumotlar to'plamarining alohida sahifalariga havolalardan iborat ochiq ma'lumotlar to'plamarining reyestrini ko'rsatish.

35. Ochiq ma'lumotlar to'plamini va ochiq ma'lumotlar to'plamining pasportini Internet jahon axborot tarmog'ida joylashtirish qo'shimcha ravishda boshqa veb-resurslarda ham ixtiyoriy shaklda amalga oshirilishi mumkin.

9-bob. Ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchining huquq va majburiyatları

36. Ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchining huquqlari:

e'lon qilingan ochiq ma'lumotlar to'plamlarini yangilash va dolzarbli masalalari bo'yicha takliflarni o'rjanib chiqish va kiritish;

Portal operatori bilan kelishgan holda Portalda ochiq ma'lumotlarning qo'shimcha to'plamlarini e'lon qilish;

Portalda ochiq ma'lumotlarni saqlash muddatlari, shu jumladan, ochiq ma'lumotlar to'plamlari takrorlanmasligining oldini olish maqsadida Portalda ochiq ma'lumotlarning tegishli havolasini yaratish;

ochiq ma'lumotlarni Portalda joylashtirishda yuzaga kelgan texnik masalalar bo'yicha Portal operatoriga yoki Portalni texnik qo'llab-quvvatlovchiga murojaat etish.

37. Ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchining majburiyatları:

Portalda ochiq ma'lumotlar to'plamlarini e'lon qilish masalalari bo'yicha mas'ul rahbar va xodim tayinlash, uning aloqa ma'lumotlarining Portalda e'lon qilinishini ta'minlash;

o'z rasmiy veb-saytlarida "Ochiq ma'lumotlar" bo'limini yaratish hamda mazkur bo'limda tasdiqlangan Ro'yxatga muvofiq ochiq ma'lumotlar to'plamlarini e'lon qilib borish;

ochiq ma'lumotlarning dolzarbligini baholash orqali, shu jumladan, foydalanuvchilarning axborot xabarlarini qayta ishlash natijalari bo'yicha Portalda joylashtiriladigan ochiq ma'lumotlarning to'liqligi, ishonchliligi va dolzarbligini ta'minlash;

ustuvor xalqaro ma'lumotlar bazalari ko'rsatkichlari va sohadagi nufuzli xorijiy tashkilotlar tavsiyalarini inobatga olgan holda Ro'yxatni yangilash bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va har yilning sentyabr oyiga qadar Portal operatoriga kiritish;

tasdiqlangan Ro'yxatga muvofiq ochiq ma'lumotlarning yangilanishini ta'minlash;

ochiq ma'lumotlarning qonun hujjalari muvofiqligini ta'minlash;

ochiq ma'lumotlar to'plamlarining pasportlarini tuzish, rasmiylashtirish va Portalda e'lon qilish;

avtomatik ravishda e'lon qilinadigan ma'lumotlar to'plamlari joylashgan axborot resurslarini Portal bilan integratsiyasini amalga oshirish;

taqdim etilgan ma'lumotlar o'zgargan taqdirda, Portal operatoriga ishlab chiqilgan ochiq ma'lumotlar to'plami bilan birgalikda xabarnoma yuborish.

10-bob. Foydalanuvchining huquq va majburiyatları

38. Foydalanuvchining huquqlari:

Portaldan foydalangan holda ochiq ma'lumotlarga kirish;

ochiq ma'lumotlarni takror ishlab chiqish, nusxa olish, e'lon qilish va uzatish;

ochiq ma'lumotlardan erkin, muddatsiz, bepul va chegarasiz foydalanish (shu jumladan, takroran foydalanish);

ochiq ma'lumotlarni tarqatish va qayta guruhlash;

ochiq ma'lumotlar to'plamlaridan foydalangan holda axborotlar tayyorlash va uni moslashtirish, modifikatsiyalash, o'zgartirish va (yoki) chiqarib olish;

ochiq ma'lumotlardan tijorat maqsadlarida, shu jumladan, turli xildagi dasturiy mahsulotlar va ilovalar yaratishda foydalanish;

tovarlar va moliya bozorlarining monopoliyasini aniqlash maqsadida ochiq ma'lumotlardan foydalanish;

Portal operatoriga Portalning dasturiy-texnik vositalaridan foydalangan holda uning faoliyat ko'rsatish masalalari bo'yicha va Ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarga Portalga joylashtiriladigan ochiq ma'lumotlar to'plamlari yuzasidan axborot xabarlarini yuborish.

39. Foydalanuvchining majburiyatları:

ochiq ma'lumotlardan faqat qonun hujjalari zid kelmaydigan maqsadlarda foydalanish;

ochiq ma'lumotlardan foydalanishda axborot manbaiga havolani biriktirish.

11-bob. Portalni takomillashtirish va uni texnik qo'llab-quvvatlashni moliyalashtirish manbalari

40. Portalning yangi versiyasini yaratish, joriy etish va kelgusida uni qo'llab-quvvatlashni, shuningdek, ochiq ma'lumotlar sohasida yagona metodologiyani ishlab chiqish, mahalliy va xalqaro ekspert va konsultantlarni jalb qilgan holda mas'ul xodimlar malakasini oshirib borishni moliyalashtirish manbalari etib quydagilar belgilanadi:

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasining elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihamalarini moliyalashtirish bo'yicha maxsus hisobvarag'idagi mablag'lar;

tijorat va xo'jalik faoliyatini yuritish maqsadida Portal bilan elektron hamkorlikni (API interfeyslaridan foydalangan holda) yo'lga qo'yish uchun tuzilgan shartnomalar orqali tushgan mablag'lar;

xalqaro moliya institatlari va boshqa xorijiy donorlarning grantlari;

qonun hujjalarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

41. Mazkur Nizomning 40-bandi [uchinchchi](#) — [beshinchchi](#) xatboshilarida ko'rsatilgan moliyalashtirish manbalari tomonidan yig'ilgan mablag'lar quydagi tartibda taqsimlanadi:

60 foizi — Portal faoliyatini takomillashtirish, uning moddiy-texnika bazasini, jumladan, server va kommunikatsiya uskunalarining ehtiyyot qismlari va butlovchi buyumlarini ish holatida saqlash uchun Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasining elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihamalarini moliyalashtirish bo'yicha maxsus hisobvarag'iga;

40 foizi — xalqaro tan olingan tajribalar asosida ochiq ma'lumotlarni sifatli tayyorlashga yo'naltirilgan yagona metodikani ishlab chiqish, ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar mas'ul xodimlarining muntazam ravishda malakasini oshirib borish va mazkur jarayonlarga mahalliy va xalqaro tashkilotlarning ekspert va konsultantlarini jalb qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining hisobvarag'iga yo'naltiriladi.

12-bob. Yakunlovchi qoidalar

42. Portalda joylashtirilgan axborotlarning o'z vaqtida e'lon qilinishi, ularning ishonchliligi va to'liqligi uchun ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar rahbarlari shaxsan javobgar hisoblanadilar.

43. Portal operatori va Portalni texnik qo'llab-quvvatlovchi foydalanuvchilar ochiq ma'lumotlardan foydalanishi oqibatlariga, shu jumladan, Portalda joylashtirilgan ochiq ma'lumotlardan foydalanish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar uchun javobgar emas.

44. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor shaxslar qonun hujjaligiga muvofiq javob beradilar.

O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portali to'g'risidagi
nizomga
1-ILOVA

O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portalida e'lon qilinadigan ma'lumotlar to'plamlari ro'yxatini shakllantirish

SXEMASI

Bosqichlar	Harakatlar	Mas'ullar	Muddatlar
1-bosqich	Ustuvor xalqaro ma'lumotlar bazalari ko'rsatkichlari hamda sohadagi nufuzli xorijiy tashkilotlar indekslari va tavsiyalari, shuningdek, aholi va tadbirkorlik subyektlari talablarini inobatga olgan holda Ochiq ma'lumotlar portalida (keyingi o'rinnarda — Portal) e'lon qilinadigan ma'lumotlar to'plamlari ro'yxatiga (keyingi o'rinnarda — Ro'yxat) kiritish uchun takliflarni Portal operatoriga taqdim etish.	Davlat organlari va tashkilotlari	Har yili 1-sentabrga qadar
2-bosqich	1. Davlat organlari va tashkilotlari takliflarini Portalga joylashtirish imkoni va samarasi nuqtai nazaridan o'rganib chiqish. 2. Asoslangan takliflarni o'z ichiga olgan Ro'yxatni shakllantirish va tasdiqlash uchun "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha muvofiqlashtirish komissiyasiga kiritish.	Portal operatori	Har yili 1-dekabrga qadar
3-bosqich	Tasdiqlangan ro'yxat asosida ochiq ma'lumotlar to'plamlarini belgilangan muddatlar va shakllarda Portalga joylashtirib borishni ta'minlash.	Davlat organlari va tashkilotlari	Ro'yxat asosida
4-bosqich	Tasdiqlangan ro'yxat asosida davlat organlari va tashkilotlari ma'lumotlarni Portalga joylashtirib borishi monitoringini olib borish.	Portal operatori	Doimo

O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portali to'g'risidagi
nizomga
2-ILOVA

Ochiq ma'lumotlar to'plamining pasportini to'ldirish

NAMUNASI

Ochiq ma'lumotlar to'plamining pasporti

TAVSIFI

1. Ochiq ma'lumotlar to'plamining identifikatsiya raqami (kodi).
2. Ochiq ma'lumotlar to'plami haqida ma'lumot:
 - 2.1 to'liq nomi;
 - 2.2 tavsifi;
 - 2.3 tarkibi;
 - 2.4 ishlab chiqish metodikasi.
3. Ochiq ma'lumotlar to'plamini yetkazib beruvchi:
 - 3.1 ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchi tashkilotning to'liq nomi;
 - 3.2 mas'ul shaxs (F.I.O.);
 - 3.3 mas'ul shaxsnинг telefon raqami;
 - 3.4 mas'ul shaxsnинг elektron manzili (*yetkazib beruvchi domenidagi elektron pochta manzili*).
4. Ochiq ma'lumotlar to'plami formati.
5. Ochiq ma'lumotlar to'plamarini e'lon qilish:

- 5.1 birinchi marta e'lon qilingan sanasi va vaqt;
 - 5.2 oxirgi kiritilgan o'zgartirishlar sanasi va vaqt;
 - 5.3 oxirgi kiritilgan o'zgartirish mazmuni;
 - 5.4 yangilash davriyligi;
 - 5.5 o'Ichov birligi;
 - 5.6 boshqa veb-resurslardagi ochiq ma'lumotlar to'plamiga havola;
 - 5.7 ochiq ma'lumotlar to'plamining avvalgi versiyasiga havola.
6. Ochiq ma'lumotlar to'plamining mazmuniga mos keluvchi kalit so'zlar.

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.12.2020-y., 09/20/808/1663-son)